

SURXON VOHASIDA MIGRATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING ETNIK HOLATGA TA'SIRI

Axmedova Gulchehra O'skinovna

*Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Toshmamatov Azizbek Tohir o'g'li

*Termiz davlat universiteti magistratura bo'limi,
Etnografiya, etnologiya va antropologiya yo'nalishi magistranti,*

Termiz arxeologiya muzeyi ilmiy xodimi.

toshmamatovazizbek096@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-4338-1176>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon vohasida kuzatilayotgan migratsiya jarayonlari va ularning hududning etnik tarkibiga ko'rsatgan ta'siri har tomonlama tahlil qilinadi. Mazkur jarayonlarni ochib berish jarayonida ichki va tashqi migratsiya oqimlari, demografik o'zgarishlar hamda mahalla institutining aholini ijtimoiy moslashtirish va hududiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni alohida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida migratsiyaning etnik holatga ta'siri mavjud ilmiy manbalar, statistik ma'lumotlar va tarixiy jarayonlar tahlili asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: migratsiya, Surxon vohasi, etnik tarkib, mahalla, demografiya.

Аннотация: В статье анализируются миграционные процессы в Сурханском оазисе и их влияние на этническую структуру региона. В ходе исследования последовательно рассматриваются внутренние и внешние миграционные потоки, демографические изменения, а также роль института махалли в обеспечении социальной стабильности и адаптации населения. На основе имеющихся научных источников и статистических данных кратко раскрывается, каким образом миграция формирует и трансформирует современную этническую ситуацию в регионе.

Ключевые слова: миграция, Сурхандарьинский оазис, этнический состав, махалля, демография.

Annotation: The article analyzes the migration processes occurring in the Surkhan oasis and their impact on the region's ethnic structure. It examines internal and external migration flows, demographic dynamics, and

the role of the mahalla institution in promoting social stability and facilitating community integration. Drawing on scientific sources and demographic data, the study highlights the key ways in which migration shapes and transforms the contemporary ethnic landscape of the area.

Keywords: migration, Surkhan oasis, ethnic composition, mahalla, demographics.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Surxon vohasi O'zbekistonning janubiy qismida joylashib, tarixan turli madaniyatlar, aholi guruhlari va migratsiya yo'llari kesishgan muhim makon sifatida shakllangan. Hududning iqtisodiy faolligi, qulay geografik joylashuvi va ijtimoiy muhitdagi xilma-xillik migratsiya jarayonlarining uzluksiz davom etishiga imkon yaratib kelgan. Ushbu jarayonlarning mohiyatini chuqurroq anglash va ularning zamonaviy ko'rinishlarini baholash uchun, avvalo, mavjud ilmiy adabiyotlar hamda olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilish zarur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Aholining geografik taqsimoti — insonlarning ma'lum hududlarda joylashishi va ularning son jihatdan taqsimlanishini bildiradi, bu esa iqtisodiy, ekologik, siyosiy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, aholining doimiy yoki vaqtincha yashash joyini o'zgartirish, ya'ni migratsiya, geografik taqsimotni shakllantiruvchi muhim jarayon hisoblanadi. O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda migratsiya oqimlari ortib borayotgani, hududlardagi demografik

jarayonlarni bevosita ta'sir qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Surxon vohasidagi aholining joylashuvi va harakati ham ushbu umumiy tendensiyalarga muvofiq rivojlanmoqda[1].

Surxondaryo viloyatida aholi sonining ko'payish sur'ati so'nggi yillarda, Qashqadaryo viloyati bilan bir qatorda, mamlakat bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda hudud demografik qudrati jihatidan O'zbekistonning yetakchi viloyatlaridan biri sifatida ajralib turadi. 1989-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatiga ko'ra, viloyat aholisi 1 million 253,8 ming nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko'rsatkich qariyb 1,7 baravar oshdi. So'nggi yillarda demografik o'sish biroz sekinlashgan bo'lishiga qaramay, u hanuzgacha respublika bo'yicha eng yuqori darajada davom etmoqda. Aholining tezkor ko'payishi yangi ish o'rinlari yaratish va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Tumanlar kesimida eng katta aholi soni Denov tumaniga to'g'ri keladi: 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bu hududda 385 378 nafar kishi istiqomat qiladi. Denov tumanining aholi zichligi bo'yicha Asaka, Urgut, Shahrisabz va Yakkabog' kabi yirik tumanlar bilan bir qatorda demografik yetakchi hudud ekanini ko'rsatadi[2].

Aholi o'sishining muhim omillaridan biri migratsiya bo'lgani sababli, endi migratsiyaning etnik tarkibga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Migratsiyaning kuchayishi vohaning tarixiy jihatdan shakllangan etnik xilma-xilligiga yangi qatlamlar qo'shib, ijtimoiy dinamikani yanada murakkablashtirmoqda. Bu jarayon hududning geografik joylashuvi, iqtisodiy faolligi va transport yo'llariga yaqinligi bilan uzviy bog'liq bo'lib, migratsiya oqimlarini tabiiy tarzda jadallashtiradi.

O'zbekistonning janubiy viloyatlarida yangi yerlarga egalik qilish, iqtisodiy omillar va sovxozlarga ko'chib kelgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida tadqiqotlarda ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, 1950–1960-yillardan boshlab janubiy viloyatlarda sug'orish inshootlari keng miqyosda barpo etilganligi, vohada paxtachilikning rivojlanishi

va qardosh xalqlarning o'zaro hamkorligi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan[3].

Janubiy O'zbekiston, xususan Surxon vohasi, qadimdan turli etnik guruhlar chorrahasida joylashgan hudud bo'lib, bu yerda ko'chmanchi va o'troq aholining madaniy an'analari o'zaro ta'sirda rivojlangan. Tarixiy etnik qatlamlarning shakllanishi zamonaviy jamiyat tuzilishida ham o'z aksini topgan bo'lib, mahalla institutining roli bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. Migratsiya jarayonlarining faollashuvi Surxon vohasidagi mahalla tizimi faoliyatiga bevosita ta'sir qilmoqda. Mahalla, tarixan shakllangan ijtimoiy boshqaruv mexanizmi sifatida, turli kelib chiqishga mansub aholining o'zaro moslashuvi, jamoaviy uyg'unlik va etnik barqarorlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi. Qo'shnichilik madaniyati, jamoaviy birdamlik va mahalla faollarining muammolarni vaqtida hal etish amaliyoti migratsiya oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy tarangliklarni kamaytirishga yordam beradi.

O'zbekiston hududida etnik tarkibning shakllanishi tarixiy migratsiya jarayonlari, qabilalararo aloqalar va aholi ko'chishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, turli davrlarda ro'y bergan siyosiy va madaniy o'zgarishlar bu tarkibiy tuzilishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli migratsiya Markaziy Osiyo xalqlarining etnogenezida asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida baholanadi.

Surxondaryo vohasida tarix davomida o'zbek, tojik, arab, turkman, qipchoq va boshqa etnik guruhlar o'zaro madaniy aloqada bo'lgan. Natijada hudud aholisi ko'p qatlamli etnik tarkibga ega bo'lib shakllangan, bu esa ijtimoiy hayotning barqarorligi, mahalliy hamjamiyatlararo munosabatlar va madaniy muvozanatga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Surxondaryo viloyati demografik salohiyat bo'yicha mamlakatimizda yettinchi o'rinni egallaydi. So'nggi yillarda viloyat aholisining o'sish sur'ati, Qashqadaryo bilan birgalikda, O'zbekiston bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. 1989-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, viloyat aholisi 1 253,8 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2014-yilda bu ko'rsatkich

21 315 ming kishiga yetgan va 2024-yilda 2 928 ming kishiga yetishi kutilmoqda[4].

Shuningdek, Surxon vohasida migratsiya jarayonlari va etnik holat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda mahalla institutining faoliyati, tarixiy bag'rikenglik tamoyillari, jamoaviy ijtimoiy kapital va davlatning migratsiyani tartibga solish siyosati asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishguncha bo'lgan davrda, boshqa hududlar kabi Surxondaryo viloyatiga ham Sobiq Ittifoqning boshqa respublikalari hududidan yangi millatlar ko'chib kelgan. Ushbu ko'chib kelganlar orasida tili va dini mahalliy aholidan farq qiladigan rusiyzabon xalqlar asosan viloyatning shahar hududlariga joylashtirilgan. Bu tarixiy migratsiya jarayonlari vohaning hozirgi etnik tarkibiga asos yaratgan bo'lsa, zamonaviy migratsiya oqimlari esa ushbu tarkibning yanada o'zgarishiga sabab bo'lmoqda[5].

Surxon vohasida kechayotgan migratsiya jarayonlari hududning demografik, ijtimoiy va etnik tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda ichki migratsiya (viloyat ichida va boshqa viloyatlardan ko'chishlar), tashqi mehnat migratsiyasi, mavsumiy harakatlar hamda transchegaraviy ko'chishlarning kuchayishi aholining yosh tarkibi, mehnat bozori talabi va etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qilmoqda. Vohada iqtisodiy imkoniyatlarning oshishi, infratuzilmaning rivojlanishi va chegaraoldi hudud sifatida geografik o'rni migratsiya manzarasini yanada murakkablashtirmoqda. Migratsiya oqimlarining faollashuvi etnik muvozanatga ham bevosita ta'sir qiladi. Surxon vohasida tarixan o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, arablar va boshqa guruhlar yonma-yon yashab kelgan. Hozirgi migratsiya jarayonlari ushbu tarkibning dinamik ravishda o'zgarishiga, yangi guruhlarining qo'shilishiga va mavjud jamoalar bilan o'zaro aloqalarning kuchayishiga olib kelmoqda. Ayrim tumanlarda aholi tarkibining yosharmoqda ekani, mehnat resurslarining ortishi va mavsumiy migratsiya intensivligi vohadagi ijtimoiy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda[6].

Shu bilan birga, migratsiya jarayonlari ayrim xavflarni ham yuzaga keltiradi. Iqtisodiy bosim, ish o'rinlari yetishmovchiligi, resurslar taqchilligi yoki norasmiy iqtisodiy faoliyat kuchayishi ijtimoiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini xalqaro tashkilotlar ham qayd etmoqda. Keltirilgan fikr va mulohazalar Surxon vohasidagi migratsiya jarayonlarining murakkabligini ko'rsatadi. Shu asosda quyidagi xulosalarga kelish mumkin[7].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Surxon vohasida kechayotgan migratsiya jarayonlari hududning demografik rivojlanishi, ijtimoiy tuzilishi va etnik tarkibiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatmoqda. Ichki, tashqi va mavsumiy migratsiya oqimlarining ortishi natijasida aholi tarkibi dinamik ravishda o'zgarib, yoshlar ulushining ko'payishi, mehnat bozori faolligi va etnik guruhlar o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi kuzatilmoqda. Migratsiya jarayonlari vohaning iqtisodiy salohiyatini oshirish, mehnat resurslarini yangilash va hududning ijtimoiy hayotini jonlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq, migratsiya bilan bog'liq ba'zi xavf omillari — ijtimoiy bosim, resurslar taqchilligi, norasmiy iqtisodiyotning kuchayishi va etnik guruhlar o'rtasida tushunmovchiliklar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Ushbu omillarni yumshatishda mahalla instituti, davlat siyosati va xalqaro tashkilotlarning integratsion dasturlari muhim rol o'ynamoqda. Mahalla tizimining tarixiy bag'rikenglik, qo'shnichilik va jamoaviy boshqaruv tamoyillariga asoslangan faoliyati etnik barqarorlikning saqlanishiga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, Surxon vohasida migratsiya jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tarkibiy elementi sifatida maydonga chiqmoqda. Hududdagi etnik barqarorlik migratsiyaning to'g'ri boshqarilishi, mahalla institutining faol ishtiroki va jamiyatning moslashuvchanligi bilan ta'minlanmoqda. Kelgusida ushbu jarayonlarni chuqur o'rganish va samarali boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish Surxon vohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Cho‘liboyev I.I. Aholining geografik taqsimoti va migratsiya oqimlari // Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T.3, №3. – B.69.
2. Saidaxmatov Sh. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida demografik o‘zgarishlar, aholi bandligi va migratsiya jarayonlari // 2024. – B. 14. – DOI: 10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N03.
3. Xolmuminov X. *O‘zbekiston janubiy viloyatlarida tarixiy-demografik jarayonlar (sovetlar hukmronligi davrida migratsiya masalalari)*. — Toshkent: Termiz Davlat Universiteti, 2011. — Monografiya.
4. Xursanov Sadridin Mo‘min o‘g‘li. Surxondaryo viloyati aholisining tashqi migratsiyaga ta’sir etuvchi omillar // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 7–8 may 2025-yil. — B. 216.
5. Xursanov Sadridin Mo‘min o‘g‘li. Surxondaryo viloyati aholisining tashqi migratsiyaga ta’sir etuvchi omillar // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 7–8 may 2025-yil. — B. 217.
6. Sharipova G., Urinbayeva M. *Transborder Migration and Ethnic Stability in Central Asia*. Journal of Social Science, 2019, Vol. 10, No. 3.
7. UNDP Uzbekistan. *EU and UNDP Support for Afghan and Local Communities in Surkhandarya*. Tashkent: UNDP, 2023.